# FARG‘ONA VILOYATI QO‘SHTEPA TUMAN HOKIMINING
# Q A R O R I

2021 - yil 30 - dekabr 172-11-157-Q/21 Qo‘shtepa tuman hokimligi

## Tuman hududidagi barcha davlat tasarrufidagi va shaxsiy avtomototransportlar, tirkamalar va yarim tirkamalarni 2022 yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. 2013 y. 15-son 197-modda), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021 yil 9-martdagi “ Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida ”gi 125-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

**QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021 yil 9-martdagi “ Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida ”gi 125-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan:

Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi (keyingi o‘rinlarda-texnik ko‘rik) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda — DYHXX) organlari hamda tadbirkorlik sub’yektlari — yuridik shaxslar (keyingi o‘rinlarda — tadbirkorlik sub’yektlari) tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkazilishi belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Qo‘shtepa tumanida transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq, Qo‘shtepa tumanida

yuridik va jismoniy shaxslarning avtomototransport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tumanda tijorat asosida yo‘lovchilar tashish uchun foydalaniladigan yengil avtomobillar, avtobuslar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchi o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jixozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari bir yilda ikki marta, birinchi marta 1 martdan 30 iyungacha, ikkinchi marta 1 sentyabrdan 31 oktyabrgacha texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

5. Avtotransport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazilganlik uchun qonun xujjatlarida belgilangan tartibda yig‘im undirilsin.

6. Komissiya tarkibiga kiritilgan mutaxassislarni asosiy ish joyidan oylik ish haqi va lavozimi saqlangan holda tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi guruhi ixtiyoriga 2022 yilning

1 yanvaridan 1 noyabrigacha yuborish tegishli tashkilot, korxona va xo‘jalik rahbarlari roziligi bilan amalga oshirilsin.

7. Tumandagi transport vositalarini texnik ko‘rikka jalb qilishda yo‘l harakati xavfsizligi guruhi tarkibiga, tuman avtomotohavaskorlar jamiyati, mahalla fuqarolar yig‘ini raislari, tuman Ichki ishlar bo‘limi xodimlari jamoatchilik asosida qo‘shish tavsiya etilsin.

8. Qaror ommaviy axborot vositalarida rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9. Tuman hokimligi Axborot xizmati Yo.Qosimovaga, mazkur qarorni “Istiqbol yo‘li” gazetasida rasman e’lon qilish hamda tuman hokimligi rasmiy veb saytiga joylashtirish vazifasi yuklatilsin.

10. Ushbu qaror qabul qilinishi bilan tuman hokimimning 2021 yil 11 yanvardagi 3-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

11. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari B.Qurbonov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **I.V.Novikov**

Қўштепа туман ҳокимининг
2021 йил 30 декабрдаги
172-11-157-Q/21-сон қарорига
1-илова

**Қўштепа туманида транспорт воситаларини мажбурий техник кўрикдан ўтказиш бўйича комиссия**

**ТАРКИБИ**

| № | Ф.И.Ш | Иш жойи ва лавозими |
|---|---|---|
| 1. | Ш.Қосимов | Туман ИИБ ЙХХГ катта инспектори, комиссия раиси |
| 2. | Ш.Мамадалиев | Туман ИИБ ЙХХГ маъмурий амалиёт инспектори, комиссия котиби |
| **Комиссия аъзолари** | | |
| 3. | В.Зокиров | Туман автомотоҳаваскорлар кенгаши раиси |
| 4. | Т.Камолов | Туман мудофа ишларини техникалар бўйича катта ёрдамчиси |
| 5. | М.Эргашев | «Ғиштмон Файз Инвест» МЧЖ раҳбари |
| 6 | Э.Хакимов | «Ғиштмон Файз Инвест» МЧЖнинг техник кўрик ўтказиш бўйича механиги |
| 7 | Ф.Меликўзиев | «Водий Авто техник кўрик» МЧЖ раҳбари |

Қўштепа туман ҳокимининг
2021 йил 30 декабрдаги
172-11-157-Q/21-сон қарорига
2-илова

## Мажбурий техник кўрикни ўтказиш 1-босқич

## Ж А Д В А Л И.

| № | Корхона, ташкилот ММТП фермер хўжаликлари номи | Телефон рақами | Жами | Авто | Мото | Тиркама | Тех кўрик муддати. |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Шахсий автомототранспортлар | | 11777 | 10352 | 239 | 186 | 01.01.2022 31.08.2022 |
| 2. | Мохирбек Пласс савдо сервис | | 1 | 1 | | | 14.03.2022 |
| 3. | "Шукур Давлат" ф/х | | 8 | 7 | | 1 | 14.03.2022 |
| 4. | Фарғона ППР | | 5 | 5 | | | 15.03.2022 |
| 5. | Қоражийда Роввот ф/х | | 3 | 3 | | | 15.03.2022 |
| 6. | "Дадажонов " ф/х | | 3 | 3 | | | 16.03.2022 |
| 7. | 1-сонли касб-ҳунар мактаби | | 1 | 1 | | | 16.03.2022 |
| 8. | 2-сонли касб-ҳунар мактаби | | 2 | 2 | | | 17.03.2022 |
| 9. | Сардоба Сарбон Сервис МЧЖ | | 3 | 2 | | 1 | 19.03.2022 |
| 10. | Туман қишлоқ хўжалик кимё | | 2 | 2 | | | 19.03.2022 |
| 11. | Туман солик иснпекцияси | | 1 | 1 | | | 23.03.2022 |
| 12. | Водий авто газ таъмир МЧЖ | | 3 | 2 | | 1 | 23.03.2022 |
| 13. | Муллақайрағоч холис савдо | | 1 | 1 | | | 24.03.2022 |
| 14. | Сармазор мўжизавий оромгох х/к | | 2 | 2 | | | 24.03.2022 |
| 15. | Фарҳод фирмаси | | 1 | 1 | | | 26.03.2022 |
| 16. | Қўштепа Қумтепа Инвест Дизайн х/к | | 1 | 1 | | | 28.03.2022 |
| 17. | Ғиштмон Файз Инвест МЧЖ | | 1 | 1 | | | 29-30. 03.2022 |
| 18. | ЭРК хусусий корхонаси | | 15 | 9 | | 6 | 31.03.2022 |
| 19. | “Оқ марол” ф/х | | 4 | 4 | | | 02.04.2022 |
| 20. | Бинокор кичик корхонаси | | 2 | 2 | | | 04.04.2022 |
| 21. | Оқтепа чорва барака | | 2 | 2 | | | 05.04.2022 |
| 22. | Музаффар зиё маскани х/к | | 1 | 1 | | | 06.04.2022 |
| 23. | Марғилон КМК | | 5 | 5 | | | 07.04.2022 |
| 24. | Марказий шифохона | | 1 | 1 | | | 07.04.2022 |
| 25. | Туман ободонлаштириш бўлими | | 6 | 6 | | | 09.04.2022 |
| 26. | Туман инкосация | | 1 | 1 | | | 11.04.2022 |
| 27. | Туман халқ банки | | 1 | 1 | | | 11.04.2022 |
| 28. | Туман халк таълими | | 2 | 2 | | | 12.04.2022 |
| 29. | Туман ветенария бўлими | | 3 | 3 | | | 13.04.2022 |
| 30. | Фарғона ГГМЭ | | 18 | 13 | 5 | | 14.04.2022 |
| 31. | Қўштепа МТП АЖ | | 3 | 3 | | | 16.04.2022 |
| 32. | Деҳқонобод қурилиш КТХК | | 7 | 5 | | 1 | 18.04.2022 |
| 33. | Бехзод Бахт Транс МЧЖ | | 21 | 18 | | 3 | 19.04.2022 |
| 34. | Туман авто йул | | 5 | 5 | | | 20.04.2022 |
| 35. | Ватанпарвар ташкилоти | | 12 | 12 | | | 21.04.2022 |
| 36. | Водий газ таъминот туман бўлими | | 14 | 11 | 3 | | 23.04.2022 |
| 37. | Хокимият | | 4 | 4 | | | 25.04.2022 |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 38. | “Истикбол йули” | | 1 | 1 | | | 25.04.2022 |
| 39. | Фаррухбек-Жамшидбек инвест | | 4 | 4 | | | 26.04.2022 |
| 40. | Умаров Асқаржон ф/х | | 1 | 1 | | | 27.04.2022 |
| 41. | Марғилон Узкимёсервис | | 18 | 15 | | 3 | 28.04.2022 |
| 42. | Музаффар зиё маскани х/к | | 2 | 2 | | | 30.04.2022 |
| 43. | Хусусий кичик корхоналарга қарашли автотранспортлар | | 167 | 167 | | | 01.03-15. 06.2022 |
| 44 | Фермер хўжаликлари | | 64 | 64 | | | 01.03.-15. 06.2022 |
| | **Жами:** | | 425 | 400 | 8 | 17 | |

## Мажбурий техник кўрик ўтказиш 2-босқич

## Ж А Д В А Л И.

| *№* | *Корхона, ташкилот ММТП фермер хўжаликлари номи* | *Телефон рақами* | *Жами* | *Авто* | *Тех кўрик муддати.* |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Дадажон Ф/х | | 1 | 1 | 10.09.2022 |
| 2. | Салох ф/х | | 1 | 1 | 12.09.2022 |
| 3. | Мухаммадкарим Равшанбек ф/х | | 1 | 1 | 13.09.2022 |
| 4. | Сармазор Бахт Замин ф/х | | 1 | 1 | 14.09.2022 |
| 5. | Оқмарол ф/х | | 1 | 1 | 15.09.2022 |
| 7. | Фарғона ППР | | 1 | 1 | 17.09.2022 |
| 8. | Фарғона ГГМЭ | | 1 | 1 | 19.09.2022 |
| 9. | Бекзод Бахт транс | | 1 | 1 | 20.09.2022 |
| 11 | Пўлатхон мўжизаси МЧЖ | | 1 | 1 | 21.09.2022 |
| 12 | Туман маданият булимии | | 1 | 1 | 22.09.2022 |
| | **Жами:** | | 13 | 13 | |